

OILADA MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA HUQUQIY ASOSLARI VA IJTIMOIIY ZARURAT

S.M. Ro‘zimurodov,

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Ijtimoiy fanlar”
kafedrasi f.f.b.f.d.,(PhD) dotsenti*

Mamlakatimizning taraqqiyoti, fuqarolarning huquqiy ong va madaniyat darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishida esa oila muhim ijtimoiy institut sifatida asosiy o‘rinni egallaydi. Oila – insonning ilk tarbiyasi, axloqiy mezonlari, ijtimoiy normalarni qabul qilish manbai bo‘lishi bilan bir qatorda, huquqiy ongning shakllanishida ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Oilani muqaddas deb anglash har bir jamiyat a‘zosining o‘z vijdoni, o‘z oilasi va farzandlari oldidagi burchidir. Oilada axloqiy madaniyati tushunchasining mazmun-mohiyati, oila axloqiy madaniyati rivojining tarixiy-falsafiy ildizlariga doir konseptual qarashlar tahlili, zamonaviy oilada ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish: muammoning nazariy va uslubiy tahliliga oid bilimlar uyg‘unlikda tadqiq qilish maqsadga mafofiqdir. Shu o‘rinda oila, inson hayotining ilk tarbiya va ta‘lim maskani bo‘lib, uning axloqiy qadriyatlari va madaniyati jamiyat hayotida muhim rol o‘ynaydi. Shu o‘rinda mahalla esa, oila va jamiyat o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi, bu makon umumiy axloqiy qadriyatlarni tarqatish va saqlashda asosiy omil hisoblanadi. Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlashicha, “Mahalla - bebaho qadriyatlarimiz beshigi, mehr - oqibat, ahillik va totuvlik maskani. Bir - biriga elkadosh bo‘lish, ehtiyojmand, muhtoj insonlarga ko‘mak berish kabi ko‘pdan - ko‘p ezgu odat va an‘analarimiz aynan mahallada yaqqol namoyon bo‘ladi.”¹ Shuningdek, har bir oilaning mustahkamligi, oila a‘zolarining tinch va farovon hayot kechirishi, o‘zaro hurmat va izzatda yashash bu yoshlarni kelgusi oilaviy hayotga tayyorlashda muhim omildir. Oilada nafaqar ma‘naviy-axloqiy, estetik, ijtimoiy-iqtisodiy, balki huquqiy tarbiya ham amalga oshirilishi zaruriy ahamiyat kasb etadi.

Oila beqiyos milliy va umumbashariy qadriyatlardandir. Oila insoniy qadriyatlar tizimini yuksak darajada shakllantiruvchi institut va ma‘naviy-axloqiy tarbiya o‘chog‘i hamdir. Aynan oilada ko‘pchilik gumanitar qadriyatlar tarbiyalanadi, o‘stiriladi va targ‘ib qilinadi. Oila muqaddasligini ta‘minlash jamiyat asoslarini mustahkamlash bilan barobardir. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasida oila asoslarini mustahkamlash davlat ahamiyatiga molik vazifalardan hisoblanadi.

Huquqiy tarbiyaning mustahkamligi, har bir kishi hayoti, shaxs sifatidagi kamoloti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Huquq - davlat qonunlari bilan beriladigan erkinlik, harakat qilish imkoniyati, nimanidir amalga oshirish yoki nimadandir

¹ Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2024. – B-414

foydalanish, nimagadir egalik qilish. Huquqiy tarbiya - ijtimoiy tarbiyaning muhim sohasi, tarkibiy qismi hisoblanadi. Huquqiy tarbiya deganda shaxsda yuksak darajadagi huquqiy madaniyatni shakllantirish maqsadida amalga oshirilgan maqsadga muvofiq ta'sir jarayoni tushuniladi. Uning asosiy shakllarini huquqiy ta'lim, huquqiy ma'rifat va huquqiy targ'ibot tashkil qiladi. Ana shu madaniyatning yuksak darajada shakllanishi oiladagi oqilona muhit orqali kechadi.

Mamlakatimizda oilaga, uning jamiyatdagi maqomini mustahkamlashga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratiladi. Vaholanki, oila, mamlakat kelajagini barpo etadigan buyuk insonlarni, istiqbolga, taraqqiyotga xizmat qiluvchi barkamol avlodni voyaga yetkazadigan muqaddas ta'lim va tarbiya maskani hisoblanadi.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan 2022-yilda e'lon qilingan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida” ta'lim va tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratildi hamda mazkur tizimni rivojlantirish uchun eng muhim vazifalar belgilandi. Strategiyada eng avvalo, inson kapitaliga e'tiborni yanada kuchaytirish masalasiga urg'u berildi. Zero, O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, “Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta ahamiyat beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatgich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart”². Demak, Yangi O‘zbekistonda ta'lim-tarbiyani yuksalishi uchun, avvalo, bu tizimga yetarlicha imkoniyat, moddiy-texnik ko'mak, investitsion barqarorlikni ta'minlash lozim. Shundagina bu tizim rivojlanadi, mamlakat taraqqiyoti uchun asos bo'la oladi.

“Oilaviy ta'lim-tarbiyada quyidagi falsafiy-pedagogik usullar samarali hisoblanadi:

- shaxsiy namuna (ibrat bo'lish) usuli;
- an'anaviylik va zamonaviylikni uyg'unlashtirish usuli;
- ishontirish usuli;
- ta'sirchanliklik usuli;
- madaniyatli suhbat usuli;
- amaliylik usuli;
- kuzatish, ko'rsatib berish usuli va h.k.”³.

Mazkur usullarning oiladagi ta'lim-tarbiya jarayonida samarali qo'llanilishi yoshlarda mustahkam g'oyaviy, mafkuraviy immunitetni shakllanishiga xizmat qiladi. Ma'lumki, mafkuraviy immunitet deyilganda, shaxsning jamiyat taraqqiyotiga zarar keltiruvchi ayrim buzg'unchi, yovuz g'oyalarga qarshi qalban hamda ong-u tafakkur orqali

² Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. - Т.: О'zbekiston, 2022. – Б. 222.

³ Ergasheva M.X. Ta'lim va tarbiya falsafasi. Darslik. – Samarqand: SamDU Tahririy nashriyoti, 2025. –B. 330.

kurashchanlik, chidamlilik holati tushuniladi. Mafkuraviy immuniteti mustahkam shaxslarni hech bir yovuz kuch o‘z izmiga sola olmaydi. Shu boisdan ham ta’lim-tarbiya sistemasi, xususan, oilaviy muhitning mafkuraviy immunitetni shakllantirishdagi ahamiyati juda muhim sanaladi.

Yoshlarda mafkuraviy immunitetni hosil qilish, ularga milliy mafkuramiz g‘oyalarini singdirish targ‘ibotchi, tashviqotchidan o‘ziga xos huquqiy, siyosiy bilim hamda yuksak pedagogik-psixologik mahoratni talab qiladi. Targ‘ibotchi tarbiya, targ‘ibot usullarini tanlashda pedagogik-psixologik qonuniyatlarga amal qilishi zarur⁴. Demak, oilada ham tarbiya beruvchilarning o‘zlari ham huquqiy bilimlardan xabardor, o‘quvli, tajribali, ma’lum bir psixologik-pedagogik usullardan foydalana olishi zaruratdir. Buning uchun har bir ota-ona farzandli bo‘lish arafasida ota-onalik mas’uliyatini his etishi, farzand ta’limi va tarbiyasi yuzasidan eng muhim ma’lumotlarni o‘zlashtirishi, shaxsiy namuna bo‘la olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Oqilona ta’lim-tarbiya olgan farzandning g‘oyaviy-mafkuraviy immuniteti ham mustahkam bo‘ladi.

Ma’lumki, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash – bu fiziologik, tibbiy, psixologik, huquqiy, axloqiy, ma’naviy, madaniy, gigiyenik, ijtimoiy, iqtisodiy va jismoniy jihatlarni o‘z ichida mujassamlashtiruvchi murakkab va mas’uliyatli jarayon bo‘lib, ular orasida huquqiy savodxonlik masalasi alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun ham o‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda oilada huquqiy madaniyatni shakllantirish, oilaning huquqiy maqomini oshirish, unda yashovchi har bir a’zoning huquqiy va siyosiy savodxonligini oshirish, jamiyat hayotida ularning faol ishtirokini ta’minlash, shu o‘rinda xotin-qizlarga keng imkoniyatlar yaratib berishga alohida e’tibor berilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Bunda oilada huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy tarbiyani hayotga, nafaqat huquq bilan tanishtirish va unga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirish muhim rol o‘ynaydi, shu bilan bir qatorda insonda huquqiy ko‘rsatmalarga so‘zsiz itoat etish kerakligiga ishonchni tarbiyalash, ular ongiga oila to‘g‘risidagi qonun-qoidalarga doimo hurmat bilan qarash ko‘nikmalarni hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi

Kelajagimiz vorislari bo‘lgan yoshlar ongida huquqiy tarbiyani shakllantirish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib, bu boradagi ishlarni ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida oilaga oid tushunchalarni yoshlarga o‘rgatib borishdan boshlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yoshlarning huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish ta’lim muassasalari, davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor

⁴ Primov T. Ta’lim falsafasi yoki ta’lim-tarbiyaning metodologik masalalari. –T.: Fan va texnologiya, 2014. – B.228.

vazifalaridan biri hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari merosida ta’lim-tarbiya, xususan, oilaviy tarbiya masalalariga keng o‘rin berilgan. Ular bolalarni tarbiyalashni jamiyat taqdirini, millatning kelajagini belgilaydigan asosiy mezon deb hisoblaganlar. Ularning pedagogik qarashlari zahirida ijtimoiy ideal sifatida komil inson g‘oyasi yotadi. Ibn Sino bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo‘lishni, bola yomon odatlarga o‘rganmasligi uchun uni yomon odamlar va buzuv muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtirgan. Oilada farzand tarbiyasi, ayniqsa o‘g‘il bolaning tarbiyasiga ko‘p jihatdan otaning xizmati kattaligiga alohida e’tibor berilgan. Bu o‘rinda ota nafaqat oila boshlig‘i, balki o‘g‘lining eng yaqin ustoz va murabbiysiga aylanmog‘i lozim va farzandiga dastlabki ilmlarni egallashda yordam berishi qayd etilgan.

Jamiyatimizda oilada huquqiy tarbiyaning ahamiyati bo‘yicha quyidagi muammolar:

1. Huquqiy bilim yetishmasligi:

Ko‘plab oilalarda ota-onalar huquqiy bilimlarga ega emas, natijada farzandlariga huquqiy tarbiya berish imkoniyati cheklangan bo‘ladi.

2. An’anaviy tarbiya usullarining ustunligi:

Ba’zi oilalarda an’anaviy, avloddan-avlodga o‘tgan tarbiya usullari zamonaviy huquqiy qadriyatlarni e’tiborsiz qoldiradi.

3. Huquqiy tarbiyaning sustligi:

Farzandlarga yoshligidan huquqiy me’yorlar tushuntirilmasligi ularning huquq va majburiyatlarni to‘g‘ri anglab yetmasligiga olib keladi.

4. Ijtimoiy va iqtisodiy omillar:

Kam ta’minlangan yoki ijtimoiy muammolarga duch kelayotgan oilalarda huquqiy tarbiya ikkinchi darajali masalaga aylanishi mumkin.

5. Axborotning noto‘g‘ri manbalardan olinishi:

Oila a’zolari ijtimoiy tarmoqlardan yoki norasmiy manbalardan noto‘g‘ri huquqiy ma’lumotlarni olishi farzandlarning noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lishiga olib keladi.

Oilaning asosi er-xotin yohud ota-onadir. Modomiki, er-xotin oilaning tamal toshlarini mustahkam bunyod etishga mas’ul ekanlar, ular unda uchraydigan turmush qiyinchiliklari, hayot quvonchlari-yu, tashvishlarini boshdan kechirishda, oilani idora etishda, farzand tarbiyasida mas’uldirlar. Demak, oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta’minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma’naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi hujjat bo‘lgan Qomusimiz– Konstitutsiyamizda ham oila masalasiga alohida urg‘u berilgan. Konstitutsiyamizda: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega” – deb yozilgan. Shu ma’noda, bugun biz


tilimiz, dinimiz, milliy qadriyatimiz, ma’naviy meros va madaniyatimizni xolisona o‘rganish, unga amal qilish imkoniyatiga egamiz.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti zamirida eng avvalo ta’lim-tarbiya tizimini tubdan yangilash, uni zamonaviy ilmiy asoslar bilan boyitish, yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash masalasi turadi. Zero, mamlakatning huquqiy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy yuksalishi bevosita ta’lim tizimining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Shu bois Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar markazida inson omili, uning qobiliyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, yoshlarning intellektual va ma’naviy ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi globallashuv davri har bir jamiyatdan bilimdon, tashabbuskor, zamonaviy fikrlovchi, yuksak madaniyatga ega fuqarolarni talab etadi. Shuning uchun yangi avlodni tarbiyalashda ilmiy yondashuvni kuchaytirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganib, milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, shaffof, raqamlashtirilgan, yuqori samaradorlikka ega ta’lim tizimini yaratish strategik ahamiyatga ega. Bunda pedagoglar malakasini doimiy oshirib borish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini takomillashtirish, o‘quv jarayoniga yangicha metodlarni joriy etish kabi omillar muhim o‘rin tutadi. Ta’lim-tarbiya nafaqat bilim berish, balki yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish, ijtimoiy mas’uliyatini oshirish, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni singdirish jarayonidir. Ana shunday ma’naviy poydevor mustahkam bo‘lmasa, yuksak taraqqiyotga erishish mushkul. Shu bois Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida har bir ta’lim bosqichi, har bir o‘qituvchi va har bir oila zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2024. – B-414
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - T.: O‘zbekiston, 2022.
4. Primov T. Ta’lim falsafasi yoki ta’lim-tarbiyaning metodologik masalalari. –T.: Fan va texnologiya, 2014.
5. Ergasheva M.X. Ta’lim va tarbiya falsafasi. Darslik. – Samarqand: SamDU Tahririy nashriyoti, 2025.
6. Madatovich R. The role of civic responsibility in educating youth in a healthy spiritual environment in an information society //Pubmedia Social Sciences and Humanities. – 2025. – T. 3. – №. 1. – C. 6.
7. Madatovich R. S. The role of preschool education and family education in the raising of a healthy balanced generation //For Teachers. – 2024. – T. 57. – №. 4. – C. 520-523.
8. Рузимуродов С., Артиков Ш. АНАХАРСИС-ВЕЛИКИЙ ФИЛОСОФ ИЗ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ //Инновации в технологиях и образовании. – 2016. – С. 340-342.

9. Ro‘Zimurodov S. M., Abdualiov M. S. YOSHLARDA OMMAVIY MADANIYATGA QARSHI MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI //Journal of marketing, business and management. – 2025. – T. 3. – №. 8. – С. 416-418.
10. Siroj, RO‘ZIMURODOV. "YOSHLARDA SOG ‘LOM TURMUSH TARZI RIVOJLANISHIDA MILLIY VA DUNYOVIY QADRIYATLARNI UYG ‘UNLASHTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL." «АСТА NUUZ» 1.1.10. 1 (2024): 184-186.
11. Ro‘zimurodov S. M. OILADA YANGICHA IQTISODIY TAFAKKUR MADANIYATI TRANSFORMASIYA: MUAMMO VA YECHIM.(O ‘ZBEKISTON MISOLIDA) //ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЈЛАР ВАЗИРЛИГИ ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ТАХРИРИЯТ ҲАЙЪАТИ: Бош муҳаррир. – С. 88.



UNIVERSITY
OF BUSINESS
AND SCIENCE